

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc. 03/30.01.2021.1.16.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**XUSHVAQOVA DURDONA ISLOM QIZI**

**KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI**  
**JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH (NAVOIY VILOYATI**  
**MISOLIDA)**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Xushvaqova Durdona Islom qizi**

Kichik biznes sohasining iqtisodiy rivojlanishi jarayonlarini statistik baholash (Navoiy viloyati misolida)..... 3

**Хушвакова Дурдона Ислон кизи**

Статистическая оценка процессов экономического развития сферы малого бизнеса (на примере Навоийской области)..... 25

**Xushvakova Durdona Islom kizi**

“Statistical Assessment of the Economic Development Processes in the Small Business Sector (The Case of Navoi Region)”..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc. 03/30.01.2021.1.16.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**XUSHVAQOVA DURDONA ISLOM QIZI**

**KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI**  
**JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH (NAVOIY VILOYATI**  
**MISOLIDA)**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4047 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sultanova Sonya Maxmudovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Salimov Baxtiyor Tadjilyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Gulyamov Saidasror Saidahmedovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor,  
akademik

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.01.2021.1.16.03. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "19" 11 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (18/18 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "3" 11 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "3" 11 dagi № 79 raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**B.E. Mamaraximov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyas0i annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida kichik biznes sohasining iqtisodiy rivojlanishi jarayonlarini statistik baholash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish dinamikasini aniqlash, raqobatbardoshlikni baholash, shuningdek, innovatsion faollik va ish bilan ta‘minlanganlik darajasini tahlil qilish imkonini yaratadi. Xalqaro valyuta jamg‘armasining hisobotiga ko‘ra, “Bugungi kunda dunyoda 90,0 foiz korxonalar kichik va o‘rta biznesga tegishli bo‘lib, ular jahonning 63,0 foiz aholisini ish bilan ta‘minlamoqda. Yevropa Ittifoqi miqyosida kichik va o‘rta biznesning nomoliyaviy korxonalardagi umumiy salmog‘i 99,8 foizni tashkil etgani holda, ishchi kuchini uchdan ikki qismini ish bilan ta‘minlamoqda”. Kichik biznes subyektlarining statistik baholash tizimini takomillashtirish natijasida, mazkur sohadagi muammolarni bartaraf etish yo‘llari aniqlanib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy siyosatning samaradorligi oshadi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushining ko‘payishi va global iqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi.

Jahon iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, joylarda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokini kuchaytirish, aholini ish bilan ta‘minlash va daromadlarini oshirish borasidagi imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga ushbu sektorning iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasini aniqlash va baholash metodologiyasini takomillashtirish, kichik biznes subyektlarining innovatsion salohiyatini baholash va rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish, shuningdek, ish o‘rinlari yaratishdagi rolini aniqlash, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini o‘lchashning zamonaviy statistik usullari va ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish hamda globallashtirish jarayonlari sharoitida kichik biznes raqobatbardoshligini baholash uslublarini takomillashtirish kiradi.

O‘zbekistonda kichik biznes va hududiy tadbirkorlik faoliyatini tizimli hamda kompleks ravishda qo‘llab-quvvatlash, barqaror rivojlanishini ta‘minlash, uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi, ishlab chiqarish va aholi bandligini ta‘minlashdagi ulushini oshirish, kredit resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish kabi yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da ham iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini modernizatsiyalash hamda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining turli darajalarda rivojlanish omillari va tendensiyalarini statistik usullarda baholash, statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, hududiy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining ekonometrik modellarini tuzish va prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2016-yil 5-oktyabrdagi PF–4848-son “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 20-noyabrdagi PQ–4525-son “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuni o‘rganilganlik darajasi.** Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariyl jihatlarl va uslubiy asoslari xorijiy olimlardan: J.B.Sey, A.Smit, A.Marshall, Y.Shumpeter, J.Keyns, R.Xizrich, M.Piters, F.Xayek, M.Lapusta, Yu.Strostin, K.Makkonnell, S.Bryu<sup>1</sup> va boshqalarning ilmiyl ishlarida yoritib borilgan.

Shu bilan birga, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sohasini tadqiq etish hamda ekonometrik modellashtrish bo‘yicha V.M.Savchenko, V.M.Shepelov, M.A.Fedotova va boshqalar ilmiyl izlanishlar olib borishgan.

O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning umumiy muammolari, statistik modellashtrish hamda prognozlash masalalari bo‘yicha mahalliy olimlardan: S.S.Gulyamov, B.Yu.Xodiyev, B.A.Begalov, T.Sh.Shodiev, Yo.Abdullayev, R.X.Alimov, B.K.G‘oyibnazarov, M.R.Boltaboyev, O.Kenjaboyev, O.Rixsimboyev, A.B.Yugay, I.O.Ulashev, N.Q.Muradova, N.B.Ashurova va boshqalar ilmiyl ish olib borganlar<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Bryu, S. Makkonnell, K. (2019). Iqtisodiyot tamoyillari. Toshkent “Iqtisodiyot va ta‘lim” nashriyoti.

<sup>2</sup> Гуломов С.С. Тadbirkorlik va kichik бизнес. Т.: 2008. – 365 б; Шодиев Т.Ш., Ходиев Б.Ю. и др. Эконометрика. учеб. пособие. Т.: Шарк. 1999 -240 с.; Бегалов Б.А. Ахборот-коммуникациялар бозорининг шаклланиш ва ривожланиш тенденцияларини эконометрик моделлаштириш. И.ф.д. илмий даражаси олиш учун ёзилган диссертация иши.Т. 2001. -330 б.; Абдуллаев Ё. Кичик бизнес ва тadbirkorlik асослари. Т.: Меҳнат, 2010. - 349 б.; Алимов Р.Х. ва бошқалар. Миллий иқтисодда ахборот тизимлари ва технологиялари. Ўқув қўлланма. Т.: Шарк, 2004. - 320 б.; Гойибназаров Б.К., Болтабоев М.Р. ва бошқалар. Кичик бизнес ва тadbirkorlik: Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 275 б.; Кенжабаев А.Т. Тadbirkorlik фаолиятини ахборотлаштириш миллий тизимини шакллантириш муаммолари.: Иқт.фан. докт. дисс.автореф. Т.: 2005-39 б.; Рихсимбоев О.Қ. Ўзбекистон Республикасида кичик ва ўрта бизнеснинг устувор йўналишларини эконометрик башоратлаш.: Иқт.фан. номз. дисс. автореф. Т.: 2002. - 22 б; Югай А.Б. Моделирование процессов управления развитием производства предприятий малого бизнеса.: Иқт.фан. номз. дисс. автореф. Т.: 2004.-22 б; Муродова Н.Қ. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқт.фан. докт. дисс. автореф. Т.: 2016-74 б.; Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Иқт.фан. докт. дисс. автореф. Т.: 2018-72 б.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot va nazariy metodologik izlanishlarga qaramasdan, aynan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududiy kichik biznes faoliyatini keng qamrovli statistik usullardagi tahlilni takomillashtirish, iqtisodiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni ekonometrik modellar asosida baholash hamda prognozlash masalalari tizimli holda yoritib berilmagan, ayrim hududlar xususiyatlari o'rganilishi bilan cheklanilgani holda aynan Navoiy viloyati alohida tadqiqot obyekti sifatida to'laqonli o'rganilmagan. Bu esa tadqiqot mavzusi tanlanib, uning maqsad va vazifalarini belgilashga sabab bo'ladi.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining 2022–2024-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Kichik biznes sohasining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini statistik baholash (Navoiy viloyati misolida)” mavzusida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi, asosiy tendensiyalari hamda ularga ta'sir qiluvchi omillarni statistik usullardagi tahlilini amalga oshirish, ekonometrik modellarini tuzish hamda prognozlash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining milliy va hududiy iqtisodiyotdagi tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish;

Navoiy viloyatidagi kichik biznes sohasi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

viloyat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;

viloyat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ekonometrik modellarini qurish va prognozlash variantlarini asoslash;

viloyatda kichik biznes xususiy tadbirkorlik faoliyatini ustuvor rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalardan iborat tadbirkorlik subyektlari olingan.

**Tadqiqot predmetini** hududda tadbirkorlik muhitining rivojlanish jarayonlarida vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik kuzatish, o'rtacha miqdorlar, statistik jamlash va guruhlash, dinamika qatorlari, korrelyatsion va regression tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra “kichik biznes sohasining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini statistik baholash” tushunchasining iqtisodiy mazmuni kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati, o'sish dinamikasi, samaradorligi va raqobatbardoshligini raqamli ma'lumotlar asosida baholash orqali kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni, unga ta'sir etuvchi omillar, rivojlanish tendensiyalari hamda davlat siyosatining samaradorligini aniqlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

Navoiy viloyatidagi har bir shahar va tumanlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanganlik darajasini investitsiya muhiti, tadbirkorlik salohiyati hamda samaradorlik ko'rsatkichlarining ko'p omilli indeks usulidan foydalanish asosida "afzallik qatorlari"ni statistik baholash orqali takomillashtirilgan;

Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning 2000–2025-yillardagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tarkibidagi o'zgarish dinamikasi asosida 2030-yilga qadar kichik biznes korxonalari va ularda band bo'lganlar sonining prognoz qiymatlari baholangan;

viloyat hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha ko'p variantli ekonometrik modellarni qurish asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hududiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini baholash va ko'p omilli tahlil qilish bo'yicha statistik ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan;

Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan va ular asosida ekonometrik modellar ishlab chiqilgan;

iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish darajasini baholashni takomillashtirish maqsadida ekonometrik modellar taklif etilgan;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish darajasini baholashning ekonometrik modellari negizida hududlar tarmoqlarining istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, aynan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi statistika ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mas'ul tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shuki, ulardan tadbirkorlik faoliyatini statistik usullarda tahlil qilishga oid nazariy va uslubiy yondashuvlar hamda mavzuga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan aniqlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan mamlakatimiz va uning hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va prognozlashda, sohani yanada samarali rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni ishlab chiqishda hamda nazariy va statistik materiallardan oliy ta'lim muassasalarida "Statistika", "Ekonometrika asoslari", "Hududlar iqtisodiyoti" kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi, asosiy tendensiyalari hamda ularga ta'sir qiluvchi omillarni statistik usullardagi tahlilini amalga oshirish, ekonometrik modellarni tuzish hamda prognozlash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:



uslubiy yondashuvga ko'ra "kichik biznes sohasining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini statistik baholash" tushunchasining iqtisodiy mazmunini kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati, o'sish dinamikasi, samaradorligi va raqobatbardoshligini raqamli ma'lumotlar asosida baholash orqali kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni, unga ta'sir etuvchi omillar, rivojlanish tendensiyalari hamda davlat siyosatining samaradorligini aniqlash nuqtayi nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy va uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Axborot xavfsizligi, Statistika" nomli o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'iga asosan). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida talabalarda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni, unga ta'sir etuvchi omillar, rivojlanish tendensiyalari hamda davlat siyosatining samaradorligini aniqlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan kichik biznes sohasining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini statistik baholash tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

Navoiy viloyatidagi har bir shahar va tumanlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanganlik darajasini investitsiya muhiti, tadbirkorlik salohiyati hamda samaradorlik ko'rsatkichlarining ko'p omilli indeks usulidan foydalanish asosida "afzallik qatorlari" bo'yicha statistik baholash orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan "O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 10-sentabrdagi 51-8/6429-sonli ma'lumotnomasi". Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida hududlardagi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini oshirish uchun ularning salohiyati va samaradorlik ko'rsatkichlarini ekonometrik tahlil qilishni nazarda tutuvchi yondashuv O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-2770-sonli "Hududlarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori asosida ishlab chiqilib, hududlarning iqtisodiy faolligi va samaradorligini 5-8 foizga oshirishga xizmat qilib, hududlarning tadbirkorlik muhiti yaxshilanishiga va yangi ish o'rinlari yaratilishiga imkon yaratgan;

Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning 2000–2025-yillardagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tarkibidagi o'zgarish dinamikasi asosida 2030-yilga qadar baholangan kichik biznes korxonalari va ularda band bo'lganlar sonining prognoz qiymatlari, O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 10-sentabrdagi 51-8/6429-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida viloyat hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan;

viloyat hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha ko'p variantli ekonometrik modellarni qurish asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga

joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 10-sentabrdagi 51-8/6429-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-apreldagi PQ–5065-sonli “Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilish va monitoring qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori talablariga muvofiq hududlarning iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy barqarorligini 5-6 foizga oshirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 10 ta, shundan 4 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola shundan 3 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnalda, shuningdek, xalqaro mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma'ruza tezislari nashr qilingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va tadqiqotda qo'llanilgan usullar, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan, hozirgi paytgacha kelib, dunyo aholisidan mehnatga yaroqli qismining qariyb 50 %i kichik biznes sohasida band bo'lib, turli tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining milliy mahsulotdagi hissasi 33 %dan 66 %gacha, yalpi ichki mahsulotdagi hissasi esa 50 %dan 68 %gacha yetdi<sup>7</sup>. Xususan, O'zbekiston Respublikasi “Savdo-sanoat palatasi” hamda Vazirlik organlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va buning natijasida mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes faoliyatining ulushi ko'payishini ta'minlab bermoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning 31 foizga yaqin qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010-yilga kelib bu ko'rsatkich 52,5 foizni tashkil etgan. 2024-yilda esa ushbu sektorning

---

<sup>7</sup> Грант Р.М. Современный стратегический анализ. 6-с. Изд. / пер. С англ. – СПб.: Питер, 2020. с. 97.

YaIMdagi ulushini 55 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ta’siri tobora ortib borayotganini anglatadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 186 523,9 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 27,9 %ini tashkil etdi. O‘shish sur’ati 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 113,9 %ni tashkil qildi. Kichik ishlab chiqarish korxonalarining ishlab chiqarish hajmidagi ulushi ham oshib, 30,1 foizni tashkil qildi (1-jadval).

**1-jadval**

**Kichik biznesning iqtisodiyotni asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmidagi ulushi, foizda<sup>3</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Sanoat	27,9	27,4	26,0	27,0	27,5
Qishloq xo‘jaligi	96,7	96,0	94,8	94,6	94,2
Qurilish	72,5	72,5	71,5	74,3	75,0
Savdo	82,3	86,2	84,7	83,4	82,9
Asosiy kapitalga investitsiya	46,0	45,6	47,9	49,6	50,1
Bandlik	74,5	74,5	73,9	74,0	74,2
Eksport	20,5	20,0	29,6	27,7	28,3
Import	51,7	45,2	49,4	48,6	47,9

Hozirgi kunda kichik tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi 30,1 foizligi bu borada jiddiy muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda (1-rasm).



**1-rasm. O‘zbekistonda 2013–2024-yillarda iqtisodiyotda va kichik biznesda band bo‘lgan aholi soni, (mln kishi)<sup>4</sup>**

<sup>3</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2013–2022-yillar ma’lumotlari.

Respublikamizning iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 2024-yilda sanoatda 26,0 foizni, qishloq xo‘jaligida 94,8 foizni, qurilishda 71,5 foizni, savdoda 84,7 foizni, pullik xizmatlarda 49,4 foizni va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda 47,9 foizni tashkil etib, oldingi yillardagiga nisbatan tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Respublikamizda 2024-yilda 2013-yildagiga qaraganda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 2,95 martaga ko‘paygani holda, ularda band bo‘lgan xodimlar soni 1,055 barobarga oshgan. Bu esa ushbu subyektlar faoliyatining kengayganligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Navoiy viloyatida kichik biznes sohasi faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, Navoiy viloyatida ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash imkonini bermoqda. 2000–2024-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 21,5 foizdan 26,0 foizga o‘tib, 5,5 foiz birlikka ortgan (2-rasm).



**2-rasm. Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi<sup>5</sup>**

Tahlillarimizga ko‘ra, ba‘zi xorijiy davlatlarda kichik biznes sohasining mamlakat YaIMdagi ulushini ko‘rib chiqamiz. 2020-yilda Fransiyada bu ko‘rsatkich 62,0 %, Italiyada – 60,0 %ni, Yaponiyada – 55,0 %ni, Germaniyada – 54,0 %ni, Buyuk Britaniyada – 53,0 %ni, AQShda – 52,0 %ni, Qozog‘istonda – 25,6 %ni, Rossiyada – 20,0 %ni tashkil etgan<sup>6</sup>.


2024-yil 1-yanvar holatiga Navoiy viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni (dehqon va fermer xo‘jaliklaridan tashqari) 19 539 tani tashkil etdi. Bu esa, 2000-yilda faoliyat ko‘rsatgan 3 180 ta korxona sonidan 16 359 dona ziyod bo‘lib, 6,1 barobar ko‘payganini bildiradi (2-rasm).

2024-yilda mamlakatimizning turli hududlari kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi bo‘yicha Surxondaryo

<sup>5</sup> Navoiy viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

<sup>6</sup> Малый и средний бизнес как фактор экономического роста России / Ин-т экон. политики им. Е.Т. Гайдара. – М.: Изд-во Ин-та Гайдара, 2019. – 308 с.

viloyatida eng yuqori ko'rsatkich qayd etilib, 75,9 foizga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich Jizzax viloyatida 73,7 foizni, Samarqand va Namangan viloyatlarida esa 72,8 foizni tashkil etgan. Sirdaryo, Andijon, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent shahrida mazkur ulush 60 foizdan 73 foizgacha bo'lgan oraliqda shakllangan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent va Navoiy viloyatlarida esa bu ko'rsatkich respublika bo'yicha o'rtacha daraja 0 51,2 foizdan past bo'lib, mos ravishda 58,7 %, 49,8 % va 26,0 %ni tashkil qilgan.



**3-rasm. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni, (dona)<sup>7</sup>**

2024-yil yakuni holatiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 8 057 ta kichik biznes subyektlari (jami subyektlarning 41,2 %) savdoda, 3 068 tasi (15,7 %) sanoatda, 1 372 tasi (7,0 %) qurilishda, 2 437 tasi (12,5 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida, 1 250 tasi (6,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishda, 761 tasi (3,9 %) yuk tashish, saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 2 594 tasi (11,9 %) boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligida tarmoqdagi kichik biznes ulushi 2019-yilda 98,5 foiz bo'lib, 2018-yildagidan 0,3 foiz punkt birlikka oshgan.




**4-rasm. Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni, (ming kishi)<sup>8</sup>**

<sup>7</sup> Navoiy viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

<sup>8</sup> Navoiy viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2000-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat faoliyati bilan band bo'lganlar soni 115,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilda 196,2 ming kishiga, 2010-yilda 227,5 ming kishiga, 2016-yilda 254,5 ming kishiga, 2018-yilda esa 229,3 ming kishiga, 2023-yilda 220,1 ming kishiga yetgan. Kichik biznesda bandlar soni 2000-yildagiga nisbatan 2023-yilda 104,7 ming kishi yoki 1,91 barobarga ko'paygan (4-rasm).

Navoiy viloyatida 2000-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlarning iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy sonidagi ulushi 35,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilda 52,1 %ga yetgan, 2010-yilda 55,8 %ni, 2015- va 2016- yillarda 60,3 %ni tashkil etgan, 2017-yildan bu ko'rsatkich sekin-asta pasaya boshlab, 2019-yilda 55 %ni tashkil etdi, 2023-yilda esa 51,6 %ga teng bo'lgan, 2024-yilda esa 51,5 %ga teng bo'lgan (5-rasm).



**5-rasm Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi band bo'lganlar umumiy sonidagi ulushi, (%)<sup>9</sup>**

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Navoiy viloyati bo'yicha 2004-yilda 4345 ta kichik biznes subyekti ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010-yilda 5738 birlikka yetib, 132 %ni tashkil etgan. 2015-yilda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni 6798 ta bo'lib 2004-yildagiga nisbatan 156 %ga ko'paygan. 2024-yil 1-yanvar holatida ro'yxatdan o'tgan KBXT subyektlari soni 26014 birlikka teng bo'lib, 2004-yildagiga nisbatan qariyb 6,0 martaga oshgan. 2023-yilning o'zida ro'yxatga olingan KB subyektlari soni oldingi yildagiga nisbatan 108,4 %ni tashkil etgan.

Navoiy viloyatida ro'yxatga olingan KBXT korxonalari sonidan amalda faoliyat yuritayotganlari salmog'i kuzatilsa, eng yuqori ko'rsatkich 2018-yilga to'g'ri keladi. 2024-yil 1-yanvar holatiga ularning 75,1 %i faoliyat yuritgan bo'lsa, bu borada eng past ko'rsatkich 2004-yilga yoki 2005-yil 1-yanvar holatidagi statistikaga to'g'ri keldi (65,9 %).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirishga ahamiyat berib, Oliy Majlisga qilgan ilk Murojaatnomasida:

<sup>9</sup> Navoiy viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

“Biz 2018-yilni Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili deb e‘lon qilgan ekanmiz, kelgusi yili faol tadbirkorlikni rivojlantirish e‘tiborimiz markazida bo‘ladi. Bu sohani qo‘llab-quvvatlash, biznes subyektlarini jadal va barqaror rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi”<sup>10</sup>, – deb ta’kidlab o‘tdi.


## 2-jadval

### Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi (foizda)<sup>11</sup>

Yillar	YHM	Sanoat	Qurilish	Eksport	Import
2015	51,0	19,4	75,8	14,9	15,1
2016	50,4	20,8	74,8	21,5	10,8
2017	49,4	19,4	75,4	20,0	18,3
2018	42,3	16,8	72,9	29,5	15,3
2019	31,0	8,4	71,9	26,2	65,1
2020	25,7	6,5	74,1	11,8	35,1
2021	27,1	6,6	75,6	11,6	26,0
2022	25,9	7,2	80,4	8,7	34,5
2023	26,0	7,7	79,1	9,0	36,2

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT)ning viloyat iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalardagi ulushi 2-jadvalda keltirilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga berilgan e‘tibor natijasida Navoiy viloyatida sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2015-yildagi 51,0 foizdan, 2023-yilga 26,0 foizgacha pasayib, kamayish 25,0 foizni tashkil etdi. KBXTning sanoatdagi ulushi 2015-yildagi 19,4 %dan 2023-yilga 7,7 %gacha pasaygan. Qurilish tarmog‘ida KBXT ulushi 2023-yilda 79,1 foizni tashkil etib, bu 2015-yildagi 75,8 foiz ko‘rsatkichga nisbatan 3,3 foiz o‘sganini anglatadi.



### 6-rasm. Navoiy viloyati shahar va tumanlarining KBXT sohasi rivojlanishi darajasi bo‘yicha guruhlanishi<sup>12</sup>

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” online. 2017-yil 23-dekabr.

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi.



Shahar va tumanlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanish holatini “afzallik qatorlari”ni guruhlashni inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir:

2010 yil:  $K_{kar} \succ K_{navo}, K_{zar}, K_{qiz}, K_{xat}, K_{kon}, K_{navb}, K_{nur}, K_{tom} \succ K_{uchq}$ .

2018-yil:  $K_{xat}, K_{qiz}, K_{navb} \succ K_{kar}, K_{navo}, K_{zar}, K_{kon}, K_{nur}, K_{tom} \succ K_{uchq}$ .

2010-yilda eng yuqori ko‘rsatkich Karmana tumanida, 2018-yilda Xatirchi, Qiziltepa va Navbahor tumanlaridagi holat yaxshilangani ko‘rinib turibdi.

Xususan, korxona iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda uning samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### 3-jadval

#### “Navoiy gilam” kichik korxonasining rentabellik darajasi<sup>13</sup>

Ko‘rsatkichlar	Belgila-nishi	2023-yil	2024-yil
Ishlab chiqarish hajmiga nisbatan mahsulot rentabelligi, foiz	$R_o$	32,0	34,2
Mahsulot tannarxiga nisbatan rentabellik, foiz	$R_c$	34,5	36,9
Asosiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymati, so‘m	$F_{asos}$	482561,5	599593,2
Aylanma mablag‘larining yillik qiymati, so‘m	$F_{aylanz}$	15876,1	16916,5
Kapitalning umumiy yig‘indisi, so‘m	$F_{asos} + F_{aylab}$	498437,6	616509,7
Fondlar (kapital) rentabelligi, foiz	$R_{\kappa}$	39,2	42,9

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Navoiy gilam” kichik korxonasida mahsulotlarning rentabellik darajalari o‘rganilayotgan yillarda sezilarli oshgan.

Masalan, kichik korxonada 2024-yilda ishlab chiqarish hajmiga nisbatan mahsulot rentabelligi 34,2 foiz (2023-yilda bu ko‘rsatkich 32,0 foiz), mahsulot tannarxiga nisbatan rentabellik 36,9 foiz (2023-yilda ushbu ko‘rsatkich 34,5 foiz), fondlar (kapital) rentabelligi mos ravishda 39,2 va 42,9 foizni tashkil etgan. Eng avvalo barcha turdagi rentabellik darajalarining ortishiga kichik korxonada mehnatni to‘g‘ri tashkil etilishi, mahsulot sifati, mahsulot tannarxini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar, fondlardan samarali foydalanish sabab bo‘lgan.

Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni yanada kengroq ilmiy o‘rganish hamda tahlil etish maqsadida bir qator yangi ko‘rsatkichlarni tavsiya etamiz. Ular quyidagilar:

1. Kichik tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi koeffitsiyenti ( $K_{kt}$ ).

$$K_{KT} = \frac{V_{SB}}{V_M} \quad (1)$$

bu yerda:  $V_{SB}$  – kichik tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqargan mahsulot va xizmatlarning umumiy hajmi;  $V_M$  – YaHMning umumiy hajmi.

<sup>13</sup> “Navoiy gilami” kichik korxonasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.



2. Viloyat budgetiga tushirilgan soliq yig'ımlarida kichik biznes subyektlari ulushi koeffitsiyenti ( $K_s$ )

$$K_C = \frac{V_{NSB}}{V_{NM}} \quad (2)$$

bu yerda:  $V_{NSB}$  – kichik tadbirkorlik subyektlaridan budgetga to'langan soliqlar umumiy hajmi;  $V_{NM}$  – respublika va mahalliy soliqlarning umumiy hajmi.

3. Mehnatga qobiliyatli aholining umumiy sonida kichik tadbirkorlikda ishlovchi subyektlar ulushi koeffitsiyenti ( $K_{MQ}$ )

$$K_{MK} = \frac{R_{SB}}{T_N} \quad (3)$$

bu yerda:  $R_{SB}$  – kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni;

$T_N$  – mehnatga layoqatli aholining umumiy soni.

4. Mintaqada mehnat subyektlariga nisbatan kichik biznesda ishlovchilarning o'rtacha mehnat haqlarining ulushi koeffitsiyenti ( $K_{MH}$ )

$$K_{MX} = \frac{Z_{SB}}{Z_{MO}} \quad (4)$$

bu yerda:  $Z_{SB}$  – kichik tadbirkorlikda ishlovchilarning o'rtacha mehnat haqi;

$Z_{MO}$  – jami o'rtacha mehnat haqlari.

5. Mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan kichik korxonalar soni ( $K_{kk}$ )

$$K_{KK} = \frac{T_N}{N_{SB}} \quad (5)$$

bu yerda:  $N_{SB}$  – kichik korxonalar soni.

6. Tarmoq belgilari bo'yicha kichik tadbirkorlikning taqsimlanishining jamlanma koeffitsiyenti ( $K_{jamlanma}$ ) yalpi hududiy mahsulotning hajmiga ta'sir qiluvchi sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlarining eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi.

Berilgan koeffitsiyentni hisoblash uchun to'rttala tarmoq hisobga olinib, quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$K_{Jamlanma} = K_{sanoat} + K_{qurilish} + K_{qishloq\ xo'jaligi} + K_{transport}$$

7. Mintaqa iqtisodiyotidagi umumiy investitsiyalar hajmiga nisbatan kichik tadbirkorlikdagi investitsiya ulushi koeffitsiyenti ( $K_i$ )

$$K_u = \frac{V_{IMP}}{V_{OI}} \quad (6)$$

bu yerda:  $V_{OI}$  – iqtisodiyotdagi umumiy investitsiyalar hajmi;

$V_{IMP}$  – kichik tadbirkorlikdagi umumiy investitsiyalar hajmi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqada kichik tadbirkorlikning rivojini samaradorligini baholashning umumlashgan formulasi quyidagicha bo'lishi tavsiya etildi, ya'ni:

$$K_c = \frac{V_{SB}}{V_M} + \frac{V_{NSB}}{V_{NM}} + \frac{R_{SB}}{T_N} + \frac{Z_{SB}}{T_N} + \frac{N_{\text{sanoat}} + N_{\text{qurilish}} + N_{\kappa/x} + N_{\text{transport}}}{N_{SB}} + \frac{V_{\text{ИМП}}}{V_{\text{ОИ}}} \quad (7)$$

bu yerda:  $N_{\text{sanoat}}$  – sanoat tarmog‘idagi kichik korxonalar soni;

$N_{\text{qurilish}}$  – qurilish tarmog‘idagi kichik korxonalar soni;

$N_{\kappa/x}$  – qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi kichik korxonalar soni;

$N_{\text{transport}}$  – transport tarmog‘idagi kichik korxonalar soni.

Ushbu ma’lumotlarni bazis va shartnomaga nisbatan o‘zgarishini hisoblash mumkin.

Bunday holatda formula quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi tavsiya etildi:

$$K_{\text{ИМП}} = \frac{V_{SB} + K_{1Y}}{V_M} + \frac{V_{NSB} \times K_{2Y}}{V_{NM}} + \frac{R_{SB} \times K_{3Y}}{T_N} + \frac{Z_{SB}}{Z_M} + \frac{N_{SB} + K_{5Y}}{T_N} + \frac{(N_{\text{sanoat}} + N_{\text{qurilish}} + N_{\kappa/x} + N_{\text{transport}}) \times K_{6Y}}{N_{SB}} + \frac{V_{\text{ИМП}} \times K_{7Y}}{V_{\text{ОИ}}} \quad (8)$$

Ko‘p hollarda taklif etilayotgan uslubdan respublika va mintaqalar bo‘yicha moliyaviy ko‘rsatkichlar va koeffitsiyentlarni hisoblash asosida kichik tadbirkorlikning rivojlanishi bo‘yicha samarali natijalarga ega bo‘lish mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ekonometrik modellashtirish va o‘rta muddatli prognozlash”** deb nomlangan bo‘lib, amalga oshirilgan statistik tahlillar natijalari Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘zgarishi, ular o‘rtasidagi bog‘liqliklar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotimizning mazkur qismida olingan natija va xulosalarga asoslanib, Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ekonometrik modellarini ishlab chiqqan holda kelgusi yillar statistik prognozini amalga oshirish maqsad qilib belgilab olindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini shakllanishini akslantiruvchi ko‘p omilli regressiya tenglamasini umumiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘lsa:

$$Y = a + b_1 y_1 + b_2 y_2 + \dots + b_n y_n + \varepsilon \quad (9)$$

Tanlab olingan omillarni e’tiborga olgan holda ushbu tenglama quyidagicha ifodalanadi:

$$\hat{Y}_x = a + b_1 y_1 + b_2 y_2 + \dots + b_m y_m + \varepsilon, \quad (10)$$

ushbu tenglamada omillarni saralash natijasida ikkinchi darajali omillar chiqarib tashlangan bo‘lsa  $i > i'$  bo‘ladi, agar qo‘shimcha omil kiritilgan bo‘lsa  $i < i'$  bo‘ladi. Bu tenglamada  $y_i$  – tarmoqdagi kichik biznesning ulushi,  $b_1, b_2, \dots, b_n$  – regressiya koeffitsiyentlari.

Tuzilgan ko‘p omilli regressiya tenglamasining muhimligi Fisherning  $F$  – mezoni yordamida baholanadi.

$$F = \frac{D_{\text{haq}}}{D_{\text{qol}}} = \frac{R^2}{1-R^2} \cdot \frac{n-m-1}{m}, \quad (11)$$

bu yerda:  $D_{\text{haq}}$  – omilning bir erkinlik darajasi bo‘yicha kvadratlar yig‘indisi,  $\sum(\hat{y}_i - \bar{y})^2$ ;

$D_{qol}$  – qoldiqning bir erkinlik darajasi bo'yicha kvadratlar yig'indisi,  $\sum(y_i - \hat{y}_i)^2$ ;

$R^2$  – ko'p omilli determinatsiya koeffitsiyenti;

$m$  – mustaqil o'zgaruvchilar soni;

$n$  – kuzatuvlar soni.

Fisherning  $F$  – mezoniga asosan  $F$  ning yuqoridagi formula bilan hisoblangan qiymati jadval qiymatidan katta bo'lsa, ya'ni  $F_{haq} > F_{jad}$  sharti bajarilsa, regressiya tenglamasi statistik ahamiyatga ega bo'ladi.

Umumiy holda  $x_i$  omilning xususiy F-mezeni quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{x_i} = \frac{R_{y x_1 \dots x_i \dots x_p}^2 - R_{y x_1 \dots x_{i-1} x_{i+1} \dots x_p}^2}{1 - R_{y x_1 x_2 \dots x_i \dots x_p}^2} \cdot \frac{n-m-1}{1}. \quad (12)$$


Ularning har biri jadvaldagi qiymatlari bilan taqqoslanib, statistik ahamiyatliligi baholanadi va har bir omilni modelga kiritish ketma-ketligi masalasi yechiladi.

Ko'p omilli regressiyada xususiy regressiya koeffitsiyentining muhimligini Styudent F-mezeni bilan baholashda har bir omil uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$t_{b_i} = \sqrt{F_{x_i}}, \quad (13)$$

bu yerda:  $F_{x_i}$  – omilning xususiy F-mezeni.

Jadval ma'lumotlaridan foydalanib, ko'rsatkichlarning yillar davomidagi dinamikasini tahlil qilib chiqamiz (7-rasm).



